



International Conference on Adaptive Learning Technologies

International Conference on Adaptive Learning Technologies - is an online world scientific boletin to publish academic research papers from various fields. Conference procedures will be published after peer review by different reputable and top researchers from different scopes.

OZ KOMPLEKTLI MAKTABLARDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QUV TARBIYA JARAYONINI TASHKILLASHTIRISH XUXSUSIYATLARI

O'g'iljon Mamanazarovna Buxoro davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Haydarova Sarvinoz Ramazon qizi

Buxoro davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: maqolada kam komplektli maktablarni tashkil etish xususiyatlari, me'yoriy hujjatlar mazmuni bayon qilingan. Oz komplektli maktabda ishlashda o'qituvchi va o'quvchilarning qiyinchiliklari va imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: oz komplektli maktab, o'quvchi soni, boshlang'ich sinf, parallel sinf, mustaqil ta'lim.

Bugungi kunda yurtimizning eng uzoq manzillarida ijtimoyi va iqtisodiy hayot kundankunga yuqorilab bormoqda. Shunday bo'lsada Respublikaning tog'li va cho'l joylarda kichik-kichik va uzoq aholi yashaydigan punktlar mavjud. Respublikaning barcha hududlarida ta'lim-tarbiyani tizimli yo'lga qo'yish maqsadida bir sinfga belgilangan me'yordan ancha kam bo'lgan 6-7 yoshli bolalar bo'lganligi uchun oz komplektli maktablar ochiladi.

Kam komplektli maktablar faoliyati namunaviy loyihalar bo'yicha qurilmagan, moslashtirilgan binolarda joylashgan, o'quvchilar soni yetarli bo'lmagan umumta'lim muassasalarida, olis (tog'li, cho'lli) hududlarda joylashgan umumta'lim muassasalarida, shuningdek, o'zbek tilida o'qitilmaydigan umumta'lim muassasalarida o'quvchilar soni sinflarni komplektlashning o'ziga xos shart-sharoitlaridan kelib chiqib, hududiy xalq ta'limi bo'linmalari va hududiy moliya organlari bilan kelishilgan holda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarorida kam komplektli umumta'lim muassasalarida (filialarda) boshlang'ich sinf o'quvchilari quyidagi hollarda bitta sinfga birlashtirilishi mumkin:

o'quvchilar soni 8 nafargacha bo'lgan I - IV sinflar;

o'quvchilar soni 12 nafargacha bo'lgan uchta boshlang'ich sinf;

o'quvchilar soni 24 nafargacha bo'lgan ikkita boshlang'ich sinf (I va III, II va IV sinflar).

Kam komplektli sinflarni tashkil etishda maktabning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish kerak. Jumladan:

- o'quvchilar miqdori kam bo'lishi;
- boshqa parallel sinfi mavjud emasligi;
- bir o'qituvchi bir necha sinflar bilan yakka o'zi ishlashi;
- turli yoshdagi o'quvchilarning bir sinfda o'qitilishi;
- bir o'qituvchining bir necha fanni o'qitishi;
- sinflarning notekis taqsimlanishi yoki ayrim sinflarning umuman mavjud emasligi;
- bir yoki ikki o'qituvchining ishlashi, kutubxonachi, xo'jalik ishlari bo'yicha mas'ul kabi lavozimlarning mavjud emasligi (ularning vazifasini ham o'qituvchi bajaradi);
- kam komplektli maktab o'qituvchisi bir fan yo'nalishi bo'yicha mutaxassis emas, balki tadbirkor, har bir ishning ko'zini biladigan, bilimdon, har ishni uddasidan chiqadigan, har tomonlama shakllangan xodim bo'lishi kerak;
- bunday maktab o'quvchilari soni turlicha bo'lishi mumkin: 2-3- o'quvchisi bo'lgan sinflar, jami 40-50 nafar o'quvchini tashkil etadigan, ba'zi maktablarda ayrim sinflarning mavjud emasligi.

Ko'pgina bu shakldagi maktablarning moddiy texnika bazasi yetarli emasligi. Ko'pgina olimlar kam komplektli maktablarga ikkinchi nav ta'lim muassasasi sifatida qarar edi. Bugungi kunda esa, bu maktablarda ta'lim va tarbiyaning samarali shakllarini tashkil etish mumkinligiga amin bo'lmoqdalar. Asosiysi, maktabdagi o'quvchilar sonining, sinflarning kamligi o'qituvchilarga shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishga imkoniyat yaratadi. Turli yoshdagi katta bo'lmagan jamoa kichiklarni kattalar o'qitishi va tarbiyalashi uchun sharoit yaratadi.

Bunday maktablar "oila modeli" sifatida shakllanadi. Chunki turli yoshdagi bolalar bir-biri bilan aka-ukadek munosabatda bo'ladilar. Kichiklar kattalarni hurmat qilsalar, kattalar kichiklarni izzat qiladilar. To'liq maktablarda bunday munosabatni yaratish ancha mushkul ish. Bu turdagi maktablarda mexanizm o'z-o'zidan ishlaydi. 20-30-o'quvchini qamrab olgan kichik maktab katta oilani eslatadi. Bu yerda hamma bir-birini biladi, o'qituvchi ham, o'quvchi ham iliq munosabatda bo'ladi va bir-biriga yordam beradi. Shuning uchun, bezoriliklar, turli huquqbuzarliklar deyarli kuzatilmaydi.

Amerikalik pedagoglar kamkomplektli maktablarni o'rgangandan so'ng "elita" maktablar bilan solishtiradilar. "Elita" maktablardan farqi uning budjeti yo'qligidadir, deb ta'kidlaydilar.

Qaysidir ma'noda bunday maktablarning ijobiy tomonlari bo'lsa, qaysidir ma'noda uning salbiy tomonlari ham mavjud. O'quvchilar mavzularni deyarli bir-birlaridan o'rganadilar. Mavzuni tez o'zlashtiradilar, tez tushunadilar. Buning uchun sinfda iqtidorli o'quvchi bo'lishi kerak. Agar sinfda iqtidorli o'quvchi bo'lmasa, mavzuni kim bilan o'zlashtiradi? degan savol tug'iladi. O'qituvchi qancha mahoratli bo'lsa ham bu bo'shliqni to'ldira olmaydi. Iqtidorli o'quvchilarni sinflarga ajratib maxsus sinflar tashkil etishning ham iloji bo'lmaydi.

Rus pedagogi L.Bayborodovanning ta'kidlashicha, kam komplektli maktablarda o'quv motivatsiyasi juda past. Bilim, ko'nikma va malaka sust bo'lganligi uchun ham o'zlashtirish darajasi past. Bu xususiyatlar o'ziga xos metodika tanlashni talab qiladi. Oliy ta'lim muassasalarida to'liq sinflar bilan ishlashni, o'qitishni o'rgatadilar. Ammo bunday maktablarda bu metodikalarni hammasini ham qo'llab bo'lmaydi. Yosh o'qituvchilar o'quvchilarning ehtiyojini qondirish maqsadida yangi metodikalar o'ylab topishiga to'g'ri keladi.

Oz komplektli maktabda ishlash o'qituvchi va o'quvchilar uchun bir qator qiyinchiliklar va to'siqlar bilan bog'liq.

1. O'qituvchi har kuni darsga tayyorlanishi va turli fanlardan eng kamida 8 soat dars o'tishi kerak. Oz komplektli maktabda reja tuzish ancha murakab, har kuni 8-16 ta reja ustida ishlash qiyin va ko'p vaqt talab qilishi bilan, pedagogik samara beradigan bir butun qilib birlashtirish zarurligi bilan farq qiladi. Bularning hammasi o'qituvchidan tegishli bilimlarni bilishdan tashqari, maksimal darajada kuch-g'ayrat, uyushqoqlik, sabr va qat'iylik talab qiladi.

2. O'qituvchining bir necha sinfga diqqat e'tiborini taqsimlashi qiyin.

3. O'qituvchi butun sinf bilan darsning yarmi yoki qismi davomida shug'ullanishga, qolgan vaqtda o'quvchilar bilan mustaqil ishlashni tashkil qilishga to'g'ri keladi.

4. O'quvchilar mustaqil ish bajarishayotganda, darhol o'qituvchidan yordam olish imkoniyati yo'q, chunki bu vaqtda o'qituvchi boshqa sinf bilan band bo'ladi.

5. O'quvchilar, boshqa sinf o'quvchilariga xalaqit berishlariga qaramasdan, mustaqil ishlavyerishi kerak.

Bu qiyinchiliklar bilan bir qatorda oz komplektli maktab o'quvchilari uchun bir qator afzalliklar ham mavjud:

1. Sinf o'quvchilari sonining kamligi (3-5).

Bu o'qituvchiga tez-tez so'rab turish, o'quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash va tuzatish imkoniyatlarini beradi.

2. Oz komplektli maktab o'qituvchisi daftar tekshirishga oz vaqt sarflaydi.

3. O'quvchilar darsning taxminan 1/4 qismida mustaqil ishlaydi. Buning o'quv maqsadlaridan tashqari, katta tarbiyaviy ahamiyati ham bor: iroda mustahkamlanadi, uyushqoqlik, ishchanlik, qiyinchiliklarni mustaqil bartaraf qilish malakasi tarbiyalanadi, o'z – o'zini tekshirish malakalari tarbiyalanadi.

4. Katta sinf o'quvchilari kichik sinf o'quvchilariga yordam berishlari mumkin, chunki ular har kuni bitta sinf xonasida o'qishadi.

Kam komplektli maktablarda ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan darslarni tashkil etish bugungi kun talabidir.

Hozirgi kun o'qituvchisidan dars jarayonida turli yoshdagi o'quvchilar hamkorligini, ularning muloqatchanlik, tinglash, fikrlarini aniq, batafsil bayon eta olish kabi hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etilmoqda. Bu borada

– shaxsga yo'naltirilgan ta'lim;

– ta'limda differensial yondoshuv;

– integrasiyalashgan ta'lim;

– hamkorlik texnologiyalari;

– yangi axborot texnologiyalar;

– ta'limda individual yondoshuv kabilar usullar o'z samarasini bermoqda.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-son Qarori, 22.03.2017.

2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020-yil 30-iyundagi 3271-son Qarori. "Umumta'lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifkatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida".

3. Mamanazarovna, O. O. (2023). Factors Affecting the Use of Intensive Education in Primary Schools. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 215-219.

4. Olloqova, O. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA PRAGMATIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA BADIY MATN TAHLILINING AHAMIYATI. *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 2(8), 25-29.

5. Mamanazarovna, O. O. (2023). Formation Of Students' Pragmatic Competence in Mother Language Classes on The Basis of the " 4k" Model. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 24, 33-36.

6. Olloqova, O. (2023). KOMMUNIKATIV MASHQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA PRAGMATIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(17), 134-140.

7. Mamanazarovna, O. O. (2023). Methodology of Development of Communicative Competence of Primary Class Students. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(4), 6-9.

8. Mamanazarovna, O. O. (2023). FORMING PRAGMATIC COMPETENCE THROUGH TEACHING STUDENTS TO COMMUNICATION. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 720-723.

9. Оллоқова, Ў. М. (2022). ФОРМИРОВАНИЕ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ОБУЧЕНИЕ ГРУППАМ СЛОВ НА РОДИНОМ ЯЗЫКЕ И НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(18), 91-95.

10. Yunus, Y., & Yarashov, M. (2023). Effectiveness of experimental work aimed at forming general labor skills in students based on gender equality and differences. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 420, p. 06011). EDP Sciences.

11. Olloqova, O. (2021). Эффективность Использования Информационно-Коммуникационных Технологий В Повышении Лингвистической Компетентности Учащихся На Уроках Родного Языка. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz)*, 1(1).

12. Оллоқова, У. (2023). РАЗВИТИЕ ЖИЗНЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ УЧЕБНИКОВ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ. In *Uz-Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 702-706).

13. Оллоқова, Ў. М. (2023). KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA-O'QUVCHINING MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILI: Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna Buxoro davlat universiteti boshlang'ich ta'lim kafedrasida o'qituvchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (8), 183-187.

14. Mamanazarova, O. O. (2022). ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA NIHOYANI TAHLIL QILISH ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH. *Scientific Impulse*, 1(5), 694-699.

15. OLLOQOVA, O. (2021). ONA TILI TA'LIMIDA INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).

16. Mamanazarovna, O. O. (2022). O'QUV JARAYONIGA INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 67-70.

17. Olloqova, O. (2022). УЧАЩИЕСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА УРОКАХ

РОДНОГО ЯЗЫКА ОРГАНИЗАЦИЯ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz)*, 8(8).

18. Olloqova, M. O. (2021). Intensive education and linguistic competence in mother tongue. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(1), 580-587.

19. Оллокова, У. (2023). РАЗВИТИЕ ЖИЗНЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ УЧЕБНИКОВ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ. In *Uz-Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 702-706).

20. Оллокова, Ў. М. (2023). KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA-O‘QUVCHINING MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILI: Olloqova O‘g‘iljon Mamanazarovna Buxoro davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim kafedrası o‘qituvchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (8), 183-187.

21. Yusufzoda, S. (2023). ALIFBE DAVRIDA YOZUV TEXNIKASINI O‘RGATISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 27(27).

22. Yunus, Y. S. (2023). Use of Innovative Technologies in the Process of Forming Graphic Skills of 1st Graders. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(4), 26-30.

23. Yunus, Y. S. (2023). THE CONTENT OF TEACHING WRITING IN THE ALPHABET PERIOD. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 756-759.

24. Yunus, Y. S. (2023). WRITING TECHNIQUE DURING LITERACY TEACHING ON TEACHING. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(16), 44-49.

25. Yunus, Y. S. (2023). WRITING TECHNIQUE DURING LITERACY TEACHING ON TEACHING. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(16), 44-49.